

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOT:
TASHKIL QILISH, BAHOLASH
VA MARKETING XIZMATI**

(uslubiy ko'rsatma)

Samarqand – 2009

Uzluksiz pedagogik amaliyot: tashkil qilish, baholash va marketing xizmati. Uslubiy ko'rsatma. 38 bet.

TUZUVCHILAR:

**A.SOLEYEV,
A.XUDOYBERDIYEV**

Mas'ul muharrir

dots. H.Qurbonov

Taqrizchilar:

M.Raxmatov, A.Azizqulov

***SamDU o'quv-uslubiy kengashining 2009 yil aprel oyidagi yig'ilishi
qarori bilan tasdiqlangan.***

KIRISH

Ma'lumki, talabalarning uzluksiz pedagogik amaliyoti pedagogik kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, kunduzgi ta'lim shaklida tashkil etiladigan uzluksiz pedagogik amaliyotlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining 1998-yil 2-iyundagi 107/151/501-raqamli "Toshkent shahridagi ta'lim muassasalarini pedagog kadrlar bilan ta'minlash haqida"gi 1999-yil 25-iyundagi 111/214/460-sonli qo'shma buyrug'i bu borada asosiy yo'llanma vazifasini o'taydi. Bu, birinchi navbatda, viloyatlardagi pedagoglar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlarida tashkil etish imkoniyatini ham beradi. Shundan kelib chiqqan holda 2006-2007 o'quv yilidan boshlab Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetida viloyat xalq ta'limi va viloyat o'rta maxsus ta'limi boshqarmalari takliflarini hisobga olgan holda har yili tajriba tariqasida 8 ta ta'lim yo'nalishida talabalar tumanlardagi maktablarda, kollejlarda uzluksiz pedagogik amaliyot o'tashmoqda. Bunda amaliyot haftaning ikki kuni deb belgilangan. Talabalar o'zlarining yashash joylaridagi maktab va kollejlarda shartnoma asosida haftasiga 6-8 soat miqdorida dars berishadi. Ular sentabr-aprel oylari davomida shu maktabning a'zosi sifatida ishlaydi, maosh oladi, kelgusida shu joyda ishda qolish uchun bor kuchi va bilimini sarflaydi. Qariyb uch yildan buyon o'tkazilayotgan tajriba o'zining samarasini berayapti. Uzluksiz pedagogik amaliyotga jalb etilgan talabalarning 95%i o'zlarining amaliyot o'tagan joylarida qolmoqda. Universitetni har yili pedagogik ta'lim yo'nalishida 1500-1600 talaba bitirsa, ulardan qariyb 500-600 talaba uzluksiz pedagogik amaliyotga jalb etilgan. Bu universitetga katta iqtisodiy samara ya'ni o'rtacha 8 million so'm miqdorda foyda keltiryapti. Mazkur foyda universitet professor-o'qituvchilarining faolligini rag'batlantirish uchun sarflanmoqda. Quyida uzluksiz pedagogik amaliyotlarning mohiyati, maqsadi, vazifasi bo'yicha universitetda olib borilayotgan tajriba haqida fikr yuritilgan.

**UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOT NIMA:
BU - TALABA O'QIYDI, ISHLAYDI, PEDAGOGIK
MAHORATINI OSHIRADI HAM MAOSH OLADI DEGANI**

Hozirgi davrda respublikamiz miqyosida «Ta'lim to'g'risidagi» qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hujjatlari asosida keng miqyosdagi ishlar olib borilmoqda. Shuning uchun ham milliy dastur talablariga ko'ra respublikamizda ta'lim jarayoni tubdan o'zgartirildi, ya'ni 9-sinfgacha o'rta ta'lim, 3 yillik litsey va kollejlardagi ta'lim, bakalavrlik 4 yillik ta'lim hamda magistratura jarayoni qo'llanila boshlandi.

Albatta, yetuk mutaxassisni tayyorlashda birinchi navbatda o'quv rejasi hamda DTSlaridan iborat muhim hujjatlar qabul qilindi. Pedagogik kadrlarni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 30.10.98-yildagi 305-sonli buyrug'iga asosan O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida Nizomi tasdiqlangan.

Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Unda oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyotini o'tkazish shakllari, tartibi va usullari, nazariy o'qish bilan birga ularda ko'zda tutilgan pedagogik amaliyot qat'iy tartibda o'tkazilishi belgilangan. Respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida o'quv yilining yakuni va yangi 2009-2010 o'quv yiliga tayyorgarlik ishlari boshlab yuborildi. Yangi o'quv yilida oliy va o'rta maxsus kasb hunar ta'limi hamda halq ta'limi tizimida qanday o'zgarishlar, yangiliklar bo'ladi degan savol tug'ilishi mumkin. Chunki bugungi shiddatli davrimizning har kuni yangidan yangi axborotlar bilan boyib bormoqda, yosh avlod ta'lim-tarbiyasida sifat o'zgarishlarini amalga oshirishni taqozo etmoqda. Buning uchun kadrlar bilimi va tajribasi yetarli bo'lishi lozim. Shu bois oliy o'quv yurtlarida, jumladan, universitetda, xalq ta'lim muassasalari faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni birgalikda bartaraf etish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda universitetda bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash borasida tajriba sinovlari o'tkazish odat tusiga

kirgan. Shulardan biri, joylarda pedagogik amaliyotlarning uzluksizligini ta'minlash borasida 2009-2010 o'quv yilida amalga oshiriladigan ishlarga e'tiborni qaratish lozim. Shu vaqtga qadar faqat sirtqi ta'lim shaklida talabalarning pedagogik amaliyotiga bevosita ularning yashab turgan joylari yaqinidagi ta'lim muassasalarida o'tkazishga ruxsat berilar edi. Bu borada biz kunduzgi ta'lim shaklida tashkil etiladigan uzluksiz pedagogik amaliyotlarni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining «Toshkent shahridagi ta'lim muassasalarini pedagog kadrlar bilan ta'minlash haqida» gi 1999 yil 25 iyundagi 111/214/460-sonli qo'shma buyrug'iga asoslangan holda olib borishimiz mumkin. Mazkur qo'shma buyrug' asosida 2006-2007 o'quv yilidan boshlab Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetida viloyat xalq ta'limi va viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari takliflarini hisobga olgan holda tajriba tariqasida faqat 8 yo'nalish bo'yicha (universitetda har yili 1600 ta talaba pedagogik amaliyotga jalb etiladi) jami 500 ga yaqin talabalar yashash joylarida, tumanlarda uzluksiz pedagogik amaliyotni o'tkazish haqida kelishib olindi. Bunda talaba amaliyot rahbari tomonidan tayyorlab beradigan hamda fakultet dekani va universitet amaliyot rahbari tasdiqlagan shaxsiy ish reja asosida ish olib boradi. Uzluksiz pedagogik amaliyotni o'tkazishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalari haqida quyiroqda izoh beriladi.

Hozirga qadar pedagogik amaliyotni tashkil qilish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshirilib kelinmoqda, ya'ni o'quv rejasiga asosan 8 haftalik pedagogik amaliyot 4-kurs bakalavrlik rejasiga kiritilgan. Uni tashkil etish jarayonida bitta talabaga kafedradan tayinlanadigan metodist-uslubchi o'qituvchiga 8 soat, amaliyot o'tadigan tashkilot ma'muriyatiga 8 soat haq to'lash tashkil etilgan edi. Bu esa jami bitta talaba uchun 16 soatni tashkil etadi. U holda universitetda har yili 1600 ga yaqin talaba pedagogik amaliyotdan o'tishini hisobga olsak, deyarli 26 ming yaqin soatga universitet mablag'idan pul sarflashga to'g'ri keladi. Shu bilan birga 8 haftalik amaliyot faqat shahar maktablarida amalga oshirilib, bu jarayon har yili takrorlangani uchun maktab ma'muriyati tomonidan

e'tiborsiz qabul qilinishiga olib kelmoqda. Amaliyotning ikki haftasi nafaol amaliyot, 6 haftasi faol amaliyot bo'lib, buni tashkil etish jarayonida muhim iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklar tug'diradi. Amaliyot davrida talaba maktab uchun bir kelib ketuvchi buyum sifatida qaraladi. Bu esa talabaning maktabga bo'lgan havas, intilishini susaytirib yuboradi. Shu bilan birga shahar maktablari va universitet o'rtasidagi o'zaro aloqalar aytarli samara bermayapti deyish mumkin.

Hozirga vaqtda o'quv rejalarida 1-kursda 3 hafta, 2-kursda 4 hafta, 3-kursda 4 hafta o'quv, ishlab chiqarish amaliyotlari hamda 4-kursda 8 hafta pedagogik hamda 4 hafta diplom oldi amaliyotlari o'tkazilishi rejalashtirilgan. Yuqorida keltirilgan mushohada pedagogik amaliyotlarni o'tkazishning samaraliroq yo'llarini izlab topishni talab qilmoqda.

Bunday yo'llardan biri 4-kursda bir yil davomida uzluksiz pedagogik amaliyotni amalda qo'llash yaxshi samara berish mumkin deb o'ylaymiz.

Quyidagi «Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ishlar», «Maktabgacha tarbiya va bolalar sporti», «Pedagogika va psixologiya», «Musiqiy ta'lim», «Mehnat ta'limi», «Kasbiy ta'lim», «Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat», «Huquq asoslari, ma'naviyat va milliy istiqlol g'oyasi» yo'nalishlarining o'quv rejalariga asosan pedagogik amaliyotlarni tashkil etish 14 hafta qilib belgilangan. Shularni etiborga olgan holda o'quv yili davomida nazariy o'quv mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar soni 30 hafta ekanligini etiborga olsak, shu haftalarning ikki kunini uzluksiz pedagogik amaliyotni tashkil qilish imkoniyatiga egamiz. Bu bo'yicha ayni paytda universitet va boshqarmalar o'rtasida hamkorlik ishlari boshlab yuborildi. Albatta, bu ko'rinishdagi amaliyotlar ikki-uch yildan buyon Toshkent oliy o'quv yurtlarida hamda Guliston davlat universitetida sinovdan o'tmoqda. Hozirgi vaqtda universitet rahbariyati boshqarmalardan tushayotgan takliflarga muvofiq universitetning pedagogik yo'nalishiga mos bo'lgan matematika, amaliy matematika va informatika, mexanika, filologiya, tarix, biologiya, geografiya, kimyo, fizika yo'nalishlarida ham uzluksiz pedagogik amaliyotlarni o'tkazish masalasini o'rganyapti. Albatta, bu masalaning yechimi topilsa, viloyat ta'lim

muassasalarida kadrlarga bo'lgan ehtiyojning sezilarli qismi qondirilgan bo'lar edi. Bu jarayonni amalga oshirishni quyidagi tartibda tashkil etish mumkin.

Shu bir yil davomida talaba amaliyotchi o'qituvchi sifatida ish olib boradi. Bu holda tashkil etilgan amaliyotdan quyidagi natijalarni kutish mumkin:

Birinchidan, talaba-bevosita shu maktab jamoasining huquqiy a'zosiga aylanadi. Talabaga haq to'lanadi. Talaba payshanba kuni uyiga ketishi mumkin. Ish rejalar tuzadi, konspektlar yozadi, o'qituvchilar bilan muloqotda bo'ladi, talabaning oilaviy byudjetiga foyda bo'ladi; **ikkinchidan**, talabaning qanday muvaffaqiyat va kamchiliklari borligidan ota-onasi boxabar bo'ladi; **uchinchidan**, talabaning o'qish jarayonidagi faoliyati bo'yicha maktabdagi ustozlari xabardor bo'lib turadi; **to'rtinchidan**, talaba o'z fani bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlardan, yangiliklardan maktab jamoasini xabardor qilib boradi;

beshinchidan, universitet iqtisodiy tomondan bitta talaba uchun to'lanadigan 13764 so'm miqdorida foyda ko'radi. Bu esa universitet bo'yicha $13764 \times 407 = 5 \text{ mln } 601948$ so'm bo'ladi; **oltinchidan**, universitet bilan tuman xalq ta'limi bo'limi o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatiladi;

yettinchidan, kafedralarga biriktirilgan metodistga har hafta darsga kelgan vaqtda talaba bilan aloqa qilib turish uchun 4 soat yuklama ajratiladi. Bu esa oldingi 21 soatdan 17 soatini tejashga olib kelinadi. Ya'ni bir yilda universitet bo'yicha 6919 soat iqtisod qilinadi degani;

sakkizinchidan, maktabdagi fan bo'yicha metodik birlashma talabaning amaliyot davridagi faoliyatini to'liq tekshirib boradi va shu birlashma universitet bilan maktab o'rtasida ilmiy metodik aloqani mustahkamlaydi. Kafedra va maktabdagi fan uslubiy birlashmalari rejasida bu jarayon o'z ifodasini topadi;

to'qqizinchidan, talaba har yili 30 aprelga qadar maktab metodik kengashining bergan tavsiyasi va amaliyot davrida qilishi kerak bo'lgan hujjatlarni kafedraga topshiradi hamda tavsifnomada ko'rsatilgan maktab metodik kengashi tomonidan qabul qilingan bahosi talabaning reyting daftariga ko'chirib beriladi. Bu davr moboynda talaba pedagog sifatida shakllanadi hamda o'zini shu maktab jamoasining haqiqiy a'zosi deb his etadi.

Bunda talabalarning ishlab chiqarish sharoitida o'zini erkin his etish jarayoni kuzatiladi. Shu bilan birga talaba kelgusida to'liq ish bilan ta'minlanishiga erishish mumkin.

Bu albatta, kelgusida pedagogning ham ma'nviy, ham ruhiy shakllanishiga olib keladi.

Buning uchun Nizomda ko'rsatilganidek, talaba amaliyot davrida quyidagilarga rioya qilishi kerak:

Amaliyot darsida ko'zda tutilgan topshiriqlarni to'liq bajarishi, amaliyot obyekting ichki mehnat tartibqoidalariga bo'ysunishi, mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalarini o'rganishi va qat'iy rioya qilish, bajarilgan ish va uning natijalari uchun shu maktab o'qituvchilari qatori javobgarlikni olish bo'icha, kundalik daftar yuritishi, chizmalar, tasvirlar va boshqalarni bajarishi, amaliyot rahbariga barcha topshiriqlar bajarilgani haqida yozma ravishda hisobot berishi va amaliyot bo'yicha sinov topshirishi shart.

Amaliyot natijalarini yakunlashda qo'yidagilarga e'tibor berish lozim:

Amaliyot yakunida talaba yozma ravishda hisobot tayyorlaydi va uni bevosita amaliyot obyektidan tayinlangan rahbar imzolagan kundalik daftar bilan birga oliy ta'lim muassasasidan tayinlangan rahbarga topshiradi. Hisobot talabaning amaliyot davrida bajargan muayyan ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar, amaliyot obyekti bo'limlarining qisqacha izohi, ular faoliyatining tashkil qilinishi, hayot faoliyatining xavfsizligi to'g'risidagi masalalar, amaliyot natijalari bo'yicha xulosa va takliflarini o'z ichiga olishi lozim.

Amaliyot yakuni oliy ta'lim muassasasining ilmiy – uslubiy anjumani va amaliyot obyekting ishlab chiqarish kengashida muhokama qilinadi.

Oliy ta'lim muassasasi va fakultet ilmiy kengashida amaliyot natijalariga yakun yasaladi.

Amaliyot dasturini bajarmagan, ishi haqida qoniqarsiz taqriz yoki hisobot, himoyasida qoniqarsiz baho olgan talaba kelgusi yilga kursdan-kursga qoldiriladi va unga yana kelgusi yil o'z ustida ishlash imkoniyati beriladi.

Xullas, bir yillik amaliyot davrida talabada mas'uliyat hissi shakllanadi, jamoadagi muhit bilan tanishadi, o'quvchilar bilan ishlash ko'nikmasi hosil bo'ladi, pedagog

sifatida muomala madaniyati, katta yoshdagilarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lishi kerakligi, har qanday sharoitda ham o'zini boshqara olishi kabi fazilat va xislatlar kamol topadi. O'z oilasi, qarindosh-urug'lari, yaqinlari, mahallasi, qishlog'i nafasini his etadi, ularning tashvishi, yutuqlari bilan hamdard bo'ladi. O'zining jamiyat uchun naf keltiruvchi inson ekanligini anglab yetadi. Ana shu jarayon talabada o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Shu bilan birgalikda bu tumanlar maktablari uchun pedagogik kadrlarning yetishmovchilik muammolarini hal qilishga yordam beradi. Bu, albatta, hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida talabalarni iqtisodiy muhofaza qilish uchun ham muhim ahamiyatga ega. (masalan, shaharda bo'lsa transportda yurish, ovqatlanish tomonidan iqtisod qilinadi).

Bu holat universitet uchun ham katta iqtisodiy samara keltiradi. Masalan, talabalarning joylarda uzluksiz pedagogik amaliyotni o'tashi universitetga bir yil davomida o'rtacha o'n besh mln. so'mga yaqin foyda keltirishga sabab bo'ladi. Bu qilinayotgan foydalar uzluksiz pedagogik amaliyotlar o'tkazish davrida viloyat halq ta'lim va o'rta maxsus kasb hunar ta'lim xodimlarini hamda unversitet professor-o'qituvchilarining faolligini rag'batlantirish uchun sarflanishi mumkin.

Shu bilan birgalikda ta'lim muassasalaridagi ish jarayonini kuzatish natijasida amaliyotchi talaba o'zining nimalarga qodir ekanligini, qanday muammolar borligini, nimalar unga yetishmayotganligini ko'ra oladi. Bundan tashqari u fakultetga kelib o'zining takliflari va mulohazalarini aytishi mumkin bo'ladi. Fakultet rahbariyati esa amaliyotchi talabalarning istak va takliflaridan kelib chiqqan holda ularni o'qitish jarayonida sifat jihatdan tub o'zgarishlarni qilishga imkoniyat yaratib beradi. Bunday holatlarga sababchi bo'lgan amaliyotchi talabalarni ham yuqoridagi foyda mablag'lar hisobidan rag'batlantirish mumkin. Bular esa O'zbekistonda hozirgi paytda ta'lim sohasidagi jiddiy islohotlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOTGA QO'YILGAN TALABLAR

Vazirlikning 2005-yil 30-sentyabrdagi 217-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom» ga asosan Samarqand davlat universiteti Ilmiy kengashining 2007-yil 31-avgustdagi yig'ilishida tasdiqlangan «Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizomi»ning Reyting tizimi asosida baholash mezonlari bo'limining 4.6 bandida talabalarning barcha turdagi amaliyotlari: o'quv, ishlab chiqarish, pedagogik amaliyotlari 100 (yuz) ballik tizimda baholanishi ko'rsatilgan. Unda talabaning amaliyot davridagi kundalik foaliyati uchun (JB) maksimal 50 ball, hamda hisobot sifati va uning himoyasi uchun (YaB) maksimal 50 ball ajratilgan. Shundan kelib chiqqan holda uslubiy ko'rsatmada kunduzgi ta'lim 4-bosqich talabalari bilan o'tkaziladigan sakkiz oylik pedagogik amaliyoti bo'yicha to'plangan tajribalar o'z ifodasini topgan. Unda sakkiz oylik pedagogik amaliyot davomida JB ga qo'yilgan talablar, uni o'tkazish tartibi, baholash mezonlari berilgan. Bular 30 haftaga mo'ljallangan ish reja sifatida tavsiya etilgan. Unda har bir talaba sakkiz oy davomida maksimal 50 ball hisobida har kuni nima ish bilan band bo'lishi, bajariladigan ishlarning turlari va ularga beriladigan ballari aniq sanalarigacha ko'rsatilgan. Amaliyot rahbari amaliyotchi talabaning oy davomida nima ish qilganligining hisobotini ko'rib chiqadi va uni tasdiqlaydi. Ikkinchidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar yuzasidan zarur maslahatlarni beradi, kelgusi oyda rejalashtirilgan ishlari bilan tanishib chiqadi. Amaliyot oxirida bajarilgan ish turlari bo'yicha hisobot yoziladi.

YaB himoyasini o'tkazish tartibi ham 50 ball asosida yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda tashkil etiladi. YaB himoyasi pedagogik amaliyot tugagandan bir hafta keyin o'tkazilishi rejalashtirilgan. U suhbat tartibida, talabaning bevosita hisoboti asosida tashkil qilinadi.

Ishda JB va YaB himoyasi natijalari alohida jadval tarzida berilgan hamda ularning umumiy bali ko'rsatilgan.

UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOTNI BAHOLASH MEZONLARI

Vazirlik tomonidan tavsiya etilgan reyting tizimi asosida baholash mezonlari bo'limining 4.6.bandida: «Talablarning barcha turdagi malakaviy amaliyotlari 100 ballik tizimda baholanadi. Bunda talabaning amaliyot davridagi kundalik faoliyati uchun (JB) maksimum 50 ball hamda hisobot sifati va uning himoyasi uchun (YaB) maksimum 50 ball ajratiladi» - deyilgan.

I. Amaliyot faoliyatini baholashda (JB) quyidagilar e'tiborga olinadi:

- amaliyot dasturini bajarish darajasi va sifati;
- amaliyot davrida yig'ilgan va o'rganilgan materiallar hajmi va to'liqlik darajasi;
- ishni tashkil qilish va boshqarish jarayoni bilan tanishish darajasi.

Kundalik faoliyat uchun ball amaliyot rahbari tomonidan hamda muassasadagi amaliyot rahbarining fikri hisobga olingan holda qo'yiladi.

JBlashda oylik hisobot tarzida jadval asosida talabalarning faoliyati kuzatib boriladi. Jadval ilova qilindi.

JB–sentabrdan aprelgacha o'tkazildi va maksimal 50 ball hisobidan umumlashtirildi.

JB quyidagi mezonlar asosida baholandi.

1. Fan dasturi va kundalik yozish – maks.bal – 5 ball
2. O'qituvchilar darsini kuzatish – maks.bal – 10 ball
3. Mustaqil dars o'tish – maks.bal – 10 ball
4. Sinfdan tashqari tadbir – maks.bal – 8 ball
5. Ko'rgazmali qurollar tayyorlash – maks.bal – 5 ball
6. O'quvchilarga tavsifnoma yozish – maks.bal – 2 ball
7. Oylik hisobot – maks.bal – 10 ball

II. Hisobotlar va uning himoyasini baholashda quyidagilar e'tiborga olinadi:

- hisobotni tayyorlash va rasmiylashtirish sifati;
- himoya qilinayotgan materialni bilish;
- topshiriqlarni bajarish va amaliyot materiallarini tahlil qilishga ijodiy yondashish darajasi;

YaB quyidagi talablar asosida suhbat yo'li bilan baholanadi: 50 ball hisobidan:

1. Kundalik faoliyatning tahlili (mazmuni va sifati) – 5 ball
2. O'qituvchilar darsini kuzatishdan olgan saboqlari – 10 ball
3. Mustaqil dars o'tishdagi tajribasi. Dars o'tish usullari, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Natija va xulosalar – 10 ball
4. Sinfdan tashqari o'tkazilgan tadbirning ahamiyati – 10 ball

5. Tayyorlangan ko'rgazmali qurollarning mazmuni va sifati –5 ball

6. O'quvchilarga (4 ta) yozilgan pedagogik-psixologik tavsifnoma mazmunini so'rash. Kuzatish natijalari va xulosalarini so'rash – 2 ball

7. Oylik hisobotlar talabaga nima berdi. Hisobotlarning mazmuni va sifati – 8 ball

YaB 20 aprelgacha o'tkaziladi. Hujjatlarni rasmiylashtirishga bir hafta muddat beriladi.

UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOT VA MARKETING XIZMATI

Respublikamiz Prezidentining «2005-2006 o'quv yilida O'zbekiston respublikasining oliy ta'lim muassasalariga qabul to'g'risida»gi 2006-yil 2-iyundagi 92-sonli qaroridagi davlat granti bilan o'qiydigan talabalarni xalq xo'jaligining muhim tarmoqlariga 3 yillik majburiy ishga jo'natish haqidagi qismi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu oliy o'quv yurtlarida davlat granti-byudjet hisobidan ta'lim olgan talabalarga o'qishni bitirgandan so'ng davlat buyurtmasiga asosan belgilangan joyda uch yil ishlagach, diplom beriladi, degani. Chunki ayni paytda bir qator mutaxassisliklar bo'yicha viloyatimiz ta'lim muassasalarida bo'sh joylar bor. Viloyatimizning chekka xududlarida mutaxassis kadrlar yetishmaslik holatlari uchramoqda. Masalan, oliy ma'lumotli boshlang'ich sinf o'qituvchilari, matematika, informatika, rus tili, chet tili, chaqiriqqacha harbiy ta'lim, jismoniy madaniyat fani o'qituvchilariga ehtiyoj katta. Mazkur sohalar bo'yicha o'qituvchilar yetishmayotganligi sababli bir o'qituvchi ikkita, uchta fandan dars berishga majbur bo'lmoqda. Albatta, bu darsning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi turgan gap. Ikkinchidan yoshlarning bilim darajasi chegaralanib qoladi. Chunki mutaxassis o'qituvchi o'tgan dars qayerda-yu, nomutaxassis o'tgan qayerda? Litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yigit-qizlarimiz jamiyatda o'z kasbiga munosib o'rin topayaptimi?

Ana shu masalalar bo'yicha haqiqiy ahvolni atroflicha o'rganishimiz hozirgi vaqtda mutaxassislar tayyorlanayotgan har qaysi ixtisoslik yo'nalish real hayot talabalariga qay darajada javob berishi, unga faqat bugungi, balki yaqin istiqbolda qanday ehtiyoj borligini har tomonlama chuqur aniqlashimiz lozim.

Talabalarning joylarda uzluksiz pedagogik amaliyotini o'tashi universitetga bir yil davomida o'rtacha o'n besh mln. so'mga yaqin foyda keltirishga sabab bo'ladi. Bu haqda "Ma'rifat" gazetasida mulohazamiz e'lon qilingan. Bu qilinayotgan foydalar uzluksiz pedagogik amaliyotlar o'tkazish davrida viloyat xalq va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim xodimlarini hamda universitet professor-o'qituvchilarining faolligini rag'batlantirish uchun sarflanishi mumkin.

Shu bilan, birgalikda ta'lim muassasalaridagi ish jarayonini kuzatish natijasida amaliyotchi talaba o'zining nimalarga qodir ekanligini, qanday muammolar borligini, nimalar unga yetishmayotganligini ko'ra oladi. Bundan tashqari u fakultetga kelib o'zining takliflari va mulohazalarini aytishi mumkin bo'ladi. Fakultet rahbariyati esa amaliyotchi talabalarning istak va takliflaridan kelib chiqqan holda ularni o'qitish jarayonida sababchi bo'lgan amaliyotchi talabalarni ham yuqoridagi foyda

mablag'lari hisobidan rag'batlantirish mumkin. Bular esa O'zbekistonda hozirgi paytda ta'lim sohasidagi jiddiy islohotlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu yerda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan. Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasidagi quyidagi jumla o'z o'rnida aytilgandir: "Shu borada alohida muhim ahamiyat kasb etadigan ikkinchi bir masala – yoshlarni, bo'lg'usi kadrlarni tayyorlash sifati bilan bog'liq. Tabiiyki, bu borada bugun farzandlarimizga ta'lim-tarbiya berayotgan pedagogik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi qanday tashkil etilgani hal etuvchi ahamiyatga ega".

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2007-yilgi 10-martdagi 4-sonli buyrug'i asosida universitet marketing xizmati bo'limining Yangi tahrirdagi Nizomi va nazorat rejasi ishlab chiqilgan va 2007-yil 18-martda tasdiqlangan.

Yuqoridagi buyruqlar asosida Samarqand davlat universitetida bitiruvchilarni ishga taqsimlashning quyidagicha tizimi yaratilgan:

1. Avgust oyining oxirida, o'quv yili boshlanishi bilan universitetdagi pedagogika ta'lim yo'nalishida o'qiydigan talabalar har yili viloyatdagi xalq ta'limi muassasalari va kasb-hunar kollejlarida uzluksiz amaliyotlar o'tash uchun jo'natiladi. (Ushbu masala oliy ta'lim muassasalari talabalarini malakaviy amaliyot haqidagi Nizomining 4.4, 4.5 va 4.6 bandlarida hamda xalq ta'limi va oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998-yil 2-iyun 107/151/501 va 1999-yil 25-iyundagi 111/214/460 sonli qo'shma buyruqlariga asoslanib, 2006-yil fevral oyida viloyat O'MKXTB ham XTB lariga universitet rektorining 2006-yil 12-fevral №128-L xati bilan 9 ta pedagogik ta'lim yo'nalishida uzluksiz amaliyot tashkil etishni so'rab murajaat etilgan. Shu murojaatga javoban Samarqand viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasining 2006-yil 25-mart №363-2/7 va xalq ta'limi boshqarmasining 2006-yil 28-mart 19 L/1 sonli rozilik xatlari olingan. Uzluksiz amaliyot to'g'risidagi masala universitet ilmiy kengashining 2006-yil 2-may 9-sonli majlisida muhokama qilingan va tegishli qaror qabul qilingan. Ushbu majlis qaroriga asosan universitet rektorining 2006-yil 15-may №144-ij buyrug'i bilan talabalarning uzoq muddatli pedagogik amaliyotlari tashkil etilgan.

Tashkil etilgan uzluksiz amaliyot natijasida amaliyotchi talabalarning 90% ga yaqini o'zlari amaliyot o'tgan korxona va ta'lim muassasalarida ishga qolmoqda.

2. Viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi bilan kelishilgan holatda universitetga qabul qilingan magistrLAR 0,5 sht. birligi bilan AL va KKK lariga ishga joylashtiriladi. Ushbu magistrantlarning 55-

60 foizi o'qishni bitirganlaridan keyin o'zlari ishlab turgan ta'lim muassasasiga doimiy ishlash uchun qolmoqda.

3. O'quv yili boshida 15-sentabrgacha bo'lgan muddatda oldingi o'quv yilida bitirgan, lekin u yoki bu sabablarga ko'ra ish joylariga yetib bormagan talabalarning ish o'rinlari aniqlanadi va zarur hollarda qayta taqsimot o'tkaziladi.

4. Sentabr-noyabr oylarida universitetni o'tgan o'quv yilida tugatib ish o'rinlariga borgan talabalarning monitoringi o'tkaziladi: shu maqsadda korxona va tashkilotlarga xatlar bilan murojaat qilinadi va ularning javoblari viloyat xalq ta'limi bo'limidan olingan 2007-yil 5-dekabrda №01-2331 sonli, O'MKXTB tomonidan 2007-yil 15-noyabr 1367-1/7 sonli xatlari) olingandan keyin fakultetlar bilan birgalikda natijalar analiz qilinadi.

5. Noyabr oyining ikkinchi yarmida viloyat televideniya va boshqa ommaviy-axborot vositalari yordamida universitetning ilmiy-pedagogik salohiyati, kadrlar tayyorlashdagi shart-sharoitlari, kadrlarning tayyorgarlik darajasi, o'tgan yillarda bitirgan bakalavr va magistrning ishga joylashish monitoringi ko'rsatkichlari va kadrlarni ishga joylashtirish bilan bog'liq boshqa masalalar keng jamoatchilikka yetkaziladi. (Masalan. 2006 va 2007-yillarda televideniya orqali universitet va uning bitiruvchi talabalari hayotiga bag'ishlangan 40 minutlik va 1 soatlik ko'rsatuvlar uyushtirilgan).

6. Universitetni shu o'quv yilida bitiruvchi bakalavrlardan pedagogik amaliyot o'tashlari majburiy bo'lganlarning 40 foizidan ortig'i AL va KKK lariga jo'natiladi. (Masalan, 2007 yilda 974 talabadan 367 tasi AL va KKK lariga jo'natilgan). Bu tadbir ularning o'zlari amaliyotini o'tagan Al yoki KKK larida ishlab qolishlariga imkoniyat yaratadi.

7. O'quv yilida universitetni bitiruvchi talabalar uchun taqsimot qaydnomalarini shakllantirish ishlari fakultet dekanlari bilan birgalikda amalga oshiriladi.

8. Viloyatdagi ta'lim muassasalariga (tuman hokimiyatlari, yirik korxonalar, VO'MKXTB va XTB lariga) hokimiyat organlari orqali, buyurtmalarini aniqlash maqsadida, xatlar bilan murojaatlar qilinadi (2007 yil 31 oktyabrda 53-sonli va VUMKXTB siga 52-sonli xatlar bilan murojaatlar qilinib, kasb-hunar kollejlari boshqarmasidan 140 ta, viloyat xalq ta'limi muassasalaridan 1429 ta kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar olindi).

9. Dekabr oyida yangi o'quv yili uchun universitet va fakultetlar miqyosida taqsimot komissiyalari shakllantiriladi. Olingan buyurtmalar tahlil qilinib fakultetlar kesimida taqsimlanadi.

10. Yanvar oyida fakultetlarda olingan ehtiyojlar asosida dastlabki taqsimotlar o'tkazildi (2008 yil 3 yanvar №01-ij buyrug'i).

11. Marketing bo'limi, dastlabki taqsimot natijalari asosida bitiruvchi talabalarning ta'lim yo'nalishlari bo'yicha viloyatlar va tumanlar kesimidagi sonini aniqlab, jadval holatda shakllantiradi. Bu ma'lumotlar respublika va viloyat gazetalarida "Kadrlar kerakmi?" rukn ostida e'lon qilinadi.

12. Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi va viloyat o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi yirik sanoat korxonalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda fakultetlar va universitet miqyosida davra suhbatlari va taqdimot marosimlari tashkil etiladi.

13. Universitet taqsimot komissiyasi tomonidan har bir talabaning ish joylari o'rganiladi va qaror qabul qilinadi.

14. Aprel oyida bitiruvchilar uchun kerak bo'ladigan hujjatlar universitet bosmaxonasida ko'paytiriladi (bitiruv varaqasi, yo'llanma, diplom ko'chirmasi, ma'lumotnoma, shartnomalar). Universitetni bitiruvchi talabalarning asosiy ro'yxatlari tasdiqlangan holatda vazirlikga taqdim etiladi.

15. May oyida universitetning pedagogik ta'lim yo'nalishlarining 3 kursida (kelgusi o'quv yili bitiruvchilari) o'qiydigan talabalar uzluksiz amaliyotga taqsimlanadi va yo'llanmalar bilan ta'minlanadi.

16. Iyun oyida universitetni bitiruvchi talabalar ishga taqsimlangan korxona va tashkilot, ta'lim muassasalari bilan ish joylarini aniqlashtirish ishlari olib boriladi.

17. Iyul oyida ishga taqsimlangan bitiruvchi talabalarga hujjatlar tarqatiladi.

XULOSA

Samarqand davlat universitetida tashkil etilgan talabalarning uzluksiz pedagogik amaliyoti O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining 1998-yil 2-iyundagi 107/151/501 – raqamli “Toshkent shahridagi ta'lim muassasalarini pedagog kadrlar bilan ta'minlash haqida”gi 1999-yil 25-iyundagi 111/214/460- sonli qo'shma buyrug'idan kelib chiqqan holda Samarqand viloyati o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasining 2006-yil 25-mart № 363-2/7 va viloyat xalq ta'limi boshqarmasining 2006-yil 28-martdagi 19/1/1-sonli murojaat xatlari asosida universitet Ilmiy kengashining 2006-yil 2-maydagi 9- sonli majlisi qarori bilan qabul qilingan. Ushbu qaror asosida SamDU rektorining 2006-yil 15-maydagi №144-ij buyrug'i bilan 2006-2007 o'quv yilidan boshlab pedagogik ta'lim yo'nalishlaridagi talabalarning uzoq muddatli pedagogik amaliyot tashkil etilgan.

Vazirliklarning yuqoridagi qarori faqat Toshkent shahridagi ta'lim muassasalarini pedagogik kadrlar bilan ta'minlash haqida bo'lsa ham bu Samarqand viloyati ta'lim muassasalarini pedagogik kadrlar bilan ta'minlashda katta yordam berdi.

Keyingi uch yil ichida uzluksiz pedagogik amaliyot o'tagan 1500 ga yaqin talabalarning 90-95%i amaliyot o'tagan joylarda ishga qolishdi.

Talabalarning uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etilishidan talabalar, ota-onalar ham iqtisodiy samara ko'rishdi. Talabalar bilan suhbatlar ota-onalar bilan uchrashuvlarda biz bunga guvoh bo'ldik. Bu uzluksiz pedagogik amaliyotni tarix, filologiya, tojik filologiyasi, fizika, mexanika-matematika va tabiiy fanlar fakultetlarida ham tashkil qilinsa yaxshi samara beradi, deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR

1. “Ta’lim to’g’risidagi Qonun”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. 1997 yil 29 avgust O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasidagi qarori.
2. Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlari. Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi 343-sonli qarori.
3. “Oliy ta’lim haqida Nizom”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasasi talabalarining malakaviy amaliyoti haqida Nizom” Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining. 1998-yil 30-oktyabrdagi 305-son buyrug‘i.
4. “Talabalarning pedagogik amaliyoti haqida Nizom”. SamDU o‘quv-uslubiy kengashining 2005-yil 22-iyundagi 8-sonli va universitet Ilmiy kengashining 2005-yil 30-avgustdagi 1-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasining 1998-yil 2-iyundagi 107-151-501 – raqamli “Toshkent shahridagi ta’lim muassasalarini pedagog kadrlar bilan ta’minlash haqida”gi 1999-yil 25-iyundagi 111/214/460 – sonli qo‘shma buyrug‘i.
6. “Samarqand davlat universitetida talabalarning uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etish” haqida. SamDU Ilmiy kengashining 2006-yil 2-maydagi 9-sonli majlisi qarori, universitet rektorining 2006-yil 15-maydagi № 144-ij buyrug‘i.
7. “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to’g’risida muvaqqat Nizom”. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 217-sonli buyrug‘i. 2005-yil 30-sentabr.
8. Pedagogik amaliyot va uni samarali tashkil etish yo‘llari haqida. “SamDU axborotnomasi” jurnali. 2003-yil, 4-son. A.Xudoyberdiyev, M.Raxmatov.
9. Uzluksiz pedagogik amaliyot. “Ma’rifat” gazetasi. 2006-yil 1-oktabr. A.Xudoyberdiyev, M.Raxmatov.
10. Uzluksiz pedagogik amaliyot va marketing xizmati. Uzluksiz ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning nazariy-amaliy muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand 2008-yil. 104-106 betlar. H.Qurbonov, A.Xudoyberdiyev, M.Raxmatov.

MUNDARIJA

1.	Kirish	3
2.	Uzluksiz pedagogik amaliyot nima: Bu-talaba o'qiydi, ishlaydi, pedagogik mahoratini oshiradi ham maosh oladi degani	4
3.	Uzluksiz pedagogik amaliyotga qo'yilgan talablar	10
4.	Uzluksiz pedagogik amaliyot va uni baholash mezonlari . . .	11
5.	Uzluksiz pedagogik amaliyot va marketing xizmati	13
6.	Xulosa	17
7.	Adabiyotlar	36

UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOT: TASHKIL QILISH, BAHOLASH VA MARKETING XIZMATI

(uslubiy ko'rsatma)

Muharrir	Q.Meliyev
Musahhih	M.Ro'ziboyev
Tex.muharrir	O.Arnst

*18.04.2009 yilda nashrga ruxsat etildi.
№ 431 buyurtma, 2,5 bosma taboq,
hajmi 60x84 1,16. Adadi 100 nusxa*

***SamDU bosmaxonasida chop etildi.
140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.***

